Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

hujjatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ushbu tizim davlat mablag‘larining maqsadga muvofiqligi, samarali ishlatilishi va hisobdorlik tamoyillarining ta’minlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy natijalar nafaqat tashkilotning iqtisodiy faoliyatining bahosi, balki davlat moliyasining shaffofligi va barqarorligini kafolatlovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun, moliyaviy natijalarni yuritishning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini doimiy takomillashtirish zarur.

Kelajakda byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yanada samaraliroq yuritish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020). Byudjet tashkilotlari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2021). Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2016). “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (13-aprel, O‘RQ-404-son). Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2019). Moliyaviy nazorat va moliyaviy intizomni ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.

UZOQ VA QISQA MUDDATLI AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONALARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH

Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
alijonovergashboy787@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonalarda uzoq va qisqa muddatli aktivlarni samarali boshqarishning barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Aktivlarni boshqarish mexanizmlarining korxona likvidligi, investitsion*

Published: 24.05.2025
Cite this article: Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li (2025). Uzoq va qisqa muddatli aktivlarni samarali boshqarish orqali korxonalarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/270
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

faolligi va umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta’siri nazariy va amaliy asosda yoritiladi. Shuningdek, aktivlarning to‘g‘ri hisobini yuritish va ularni boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Tahlil jarayonida ilmiy yondashuvlar va aniq statistik ma’lumotlardan foydalanilgan.

***Kalit so‘zlar**: korxonalar, uzoq muddatli aktivlar, qisqa muddatli aktivlar, aktivlarni boshqarish, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik.*

***Annotation**: This article analyzes the role and significance of effective management of long-term and short-term assets in ensuring sustainable economic growth in enterprises. The impact of asset management mechanisms on enterprise liquidity, investment activity, and overall economic efficiency is covered on both theoretical and practical bases. Additionally, recommendations are provided on achieving sustainable economic growth through proper accounting and management of assets. The analysis is supported by scientific approaches and precise statistical data.*

***Keywords**: enterprises, long-term assets, short-term assets, asset management, economic growth, financial stability, investment activity.*

KIRISH

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror va samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy resurslarini boshqarish darajasiga bog‘liq. Xususan, uzoq va qisqa muddatli aktivlarning tuzilmasi va boshqaruv samaradorligi korxona iqtisodiy o‘sishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Aktivlarning holati, ularning aylanish muddati va likvidlilik darajasi nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki raqobatbardoshlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham moliyaviy boshqaruvni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va korxonalarning investitsion salohiyatini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”[1]

ASOSIY QISM

Uzoq va qisqa muddatli aktivlar korxona moliyaviy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismlaridir. Uzoq muddatli aktivlar tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar,

investitsiyalar kiradi va ular korxonaning uzoq muddatli strategik rejalari asosida shakllanadi. Qisqa muddatli aktivlar esa ishlab chiqarish jarayonining muhim bo‘g‘inlarini — xom ashyo zaxiralari, tayyor mahsulot, naqd pul va hisob-kitoblarni qamrab oladi. Mazkur aktivlarning har biri o‘z funksiyasi orqali korxona daromadiga ta’sir ko‘rsatadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, aktivlar tarkibini optimal darajada rejalashtirish, ularning aylanish tezligini oshirish va eskirish darajasini nazorat qilish orqali korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishmoqda. Ayniqsa, qisqa muddatli aktivlarning haddan tashqari ko‘payib ketishi likvidlik muammolariga olib kelsa, uzoq muddatli aktivlarning yetarli bo‘lmasligi investitsiya salohiyatini cheklab qo‘yadi. Shu bois, aktivlar tuzilmasi va ularni boshqarish strategiyasi har bir korxona uchun individual yondashuv asosida shakllanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlari kontekstida, korxonalarda aktivlarni boshqarishda zamonaviy uslublar — masalan, moliyaviy tahlil, aktivlar aylanish koeffitsienti, ROI (investitsiyadan qaytish) kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu yondashuvlar nafaqat mavjud resurslardan to‘liq foydalanish imkonini beradi, balki korxona o‘sish strategiyasini moliyaviy asoslashga xizmat qiladi. Natijada, korxona nafaqat qisqa muddatli likvidlikni ta'minlaydi, balki uzoq muddatli o‘sishni rejalashtira oladi.

Aktivlarni samarali boshqarish, korxona moliyaviy holatini barqarorlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. “Uzoq muddatli va qisqa muddatli aktivlar boshqaruvi o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatni ta’minlash, shuningdek, yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali korxona o‘sishini ta’minlash mumkin. Aktivlar tuzilmasini yaxshilash va ularning samarali ishlatilishini ta’minlashda investitsiyalar muhim o‘rin tutadi.”[2]

Investitsiyalarning aktivlarga ta’siri:

1. **Uzoq muddatli aktivlar uchun investitsiyalar**: Asosiy vositalar, binolar, uskunalar kabi uzoq muddatli aktivlar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun zarur bo‘ladi. Yangi texnologiyalar, uskunalar va infratuzilma uchun amalga oshirilgan investitsiyalar, korxona faoliyatini samarali yuritishga imkon yaratadi. Bu, o‘z navbatida, korxonaning strategik o‘sishiga va foydalilik ko‘rsatkichlarining oshishiga yordam beradi.
2. **Qisqa muddatli aktivlar uchun investitsiyalar**: Naqd pul va tovar-moddiy zaxiralar, shuningdek, debitor qarzlar kabi qisqa muddatli aktivlar korxonaning kundalik faoliyatini davom ettirish uchun zarur. Qisqa muddatli aktivlarni boshqarish, ayniqsa likvidlikni ta’minlashda muhimdir. Yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali, qisqa muddatli aktivlarning aylanma tezligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Investitsiyalarni samarali boshqarish: Investitsiyalarni boshqarishda, korxona aktivlarining doimiy va zamonaviy holatda bo‘lishi uchun, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga mos ravishda investitsiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, korxona o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydigan yangi sohalarga yoki texnologiyalarga investitsiya kiritish orqali amalga oshiriladi.

Aktivlar tuzilmasining optimalligi: Investitsiyalarni optimallashtirish va ularning faqat zarur bo‘lgan faoliyatlarga yo‘naltirilishini ta’minlash, moliyaviy resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishini osonlashtiradi. Boshqacha aytganda, aktivlar boshqaruvida investitsiyalarni maqsadli ravishda jalb qilish, korxonaning umumiy samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020) https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. Ismanov, I. N. Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. “Classik” nashriyoti. (2021).
3. Biyek, A. A., & Janov, A. I. (Korxonalarda investitsiyalarni boshqarish: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Ekonomika. (2022).
4. O‘zimov, R. S. Moliyaviy boshqaruv va investitsiyalar. Toshkent: Yangi Nashr. (2019)

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MAHSULOT TANNARXINI TAHLIL QILISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Dehqonov Diyorbek Davronbek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
diyor.rv03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot tannarxini tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Mahsulot tannarxining shakllanishi, uning to‘g‘ri hisoblanishi va boshqarilishi korxonalarning moliyaviy samaradorligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada mahsulot tannarxini tahlil qilishning amaliy yondashuvlari,